

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.:

Qodirjanijazov

2025 yil

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi: 710 000 – Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi: 60710400 – Ekologiya va atrof muhit muhofazasi

Urganch – 2025

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "05" 05" dagi 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

S.U.Xodjaniazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

G.R.Matlatipov

Mazkur o'quv dastur Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Kengashining 2025-yil "30" aprel" dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (9-sonli bayonnomasi).

Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti dekani:

J.Sh.Ruzimov

Mazkur o'quv dastur "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasining 2025-yil "26" aprel" dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (9-sonli bayonnomasi).

"Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasining mudiri:

S.Y.Babajanova

Fan/modul kodi HFXB346	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Hayot faoliyati xavfsizligi	60	60	120

2

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak mutaxassislariga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tushadigan favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining tarkibiy qismlari va ularning tekshirish ob'ektlari. Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari, ularning mazmuni. Xavflar, ularning tasnifi. Faoliyat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, uslublari. Texnosferada xavfsizlikni ta'minlash vositalari. "Inson - muhit" tizimida inson omili. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika asoslari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Hayot faoliyati xavfsizligining iqtisodiy jihatlari.

2-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari, mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi. Faoliyat xavfsizligi qonun – qoidalarga amal qilinishini nazorat qilish tizimi, qoida va talablarni buzganda tortiladigan javobgarliklar. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarini rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash. Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish tizimi. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari, ularning kelib chiqish sabablari, tahlil qilish, oldini olish tadbirlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini.

3-mavzu. Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigienasi.

Inson mehnat faoliyatining fiziologik-gigienik asoslari. Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar, ularning turlari, mohiyati va himoyalash usullari. Inson mehnat faoliyatining turlari, fiziologik ta'siri. Mehnatning fiziologik asoslari. Mehnat jarayonida ishlovchining ishlash qobiliyatini pasayishi va zo'riqishi.

Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigienasi me'yorlari, mazmuni. Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarish mikroiklimining

gigienik me'yorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo sharoitini yaratish. Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar.

Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli omillar va ulardan himoyalash tadbirlari. Ishlab chiqarishda obi-havo sharoiti va ularni me'yorlash. Ishlab chiqarishda zararli moddalar va ulardan himoyalash usullari. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish, ularning turlari, umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. Ishlab chiqarishda yoritish va uni me'yorlari. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigienik talablar. Yoritish vositalari. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Ularning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash.

Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalash vositalari.

Ishlab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Ularni tasniflash va me'yorlash. Nurlanishning zararli ta'siridan himoyalash chora-tadbirlari.

Ishlab chiqarishda elektrxavfsizlik asoslari. Texnosferada xavfsizlikni ta'minlash masalalari.

4-mavzu. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar muhofazasi.

Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Fuqaro muhofazasining maqsadi, vazifalari, kuch va vositalari, uning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etish tartiblari. O'zbekistonda favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etilishi hamda favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimlari (FVDT) to'g'risidagi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining mohiyati.

5-mavzu. Kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrda "Texnogen, tabiiy va ekologik tuzdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to'g'risida"gi 455-son qarorining mohiyati. Yer silkinishi va surilishi, tuproq, qor ko'chkilari, suv toshqini, kuchli shamollar, qurg'oqchilik va sel hodisasi ofatlari, ularning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, keltiradigan talafotlari va har bir katastrofik o'choqda olib boriladigan chora-tadbirlar.

6-mavzu. Texnogen tuzdagi ofatlar, turlari, xususiyatlari, oqibatlari va ularda fuqarolarning xatti-harakatlari.

Gidrotexnik inshootlardagi avariya. Gidrotexnika inshootlaridagi avariyalarda fuqarolarning xatti - harakati. Ishlab chiqarish jarayonlaridagi avariya. Fojiali hodisa (katastrofa) va uning oqibatlari. Transport, energetika va kommunal tizimlardagi halokatlar. Energetika tizimidagi avariya. Maishiy xizmat tarmoqlaridagi avariya.

7-mavzu. Terrorizm va aholi muhofazasi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati. Terrorizm tushunchasi, uning salbiy illatlari va amalga oshirish usullari. Terrorizmning iqtisodiyot tarmoqlari va aholi uchun xavfli xususiyatlari. Xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlar.

8-mavzu. Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning xususiyatlari. Favqulodda holatlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarini tashkil etish.

Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning xususiyatlari. Qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarini tashkiliy asoslari, shikastlangan o'choqlarda ularni olib borish usullari. Tabiiy ofatlar, avariya va halokat oqibatlarini bartaraf etishda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarini tashkil etish va o'tkazish.

9-mavzu. Shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish.

Shaxsiy saqlovchi vositalar yordamida fuqarolarni muhofaza qilish. Izolyatsiyalovchi va filtrlovchi yakka himoya vositalari. Yakka tartibdagi tibbiyot vositalaridan foydalanish. Himoya inshootlari, turlari. Fuqarolarni himoya inshootlarida muhofaza qilish. Evakuatsiya, turlari. Aholini evakuatsiya qilish.

10-mavzu. Fuqarolarni fuqaro muhofazasiga o'qitish va qayta tayyorlash.

Hozirgi vaziyatda fuqarolarni fuqaro muhofazasiga o'qitishning dolzarbligi, muhofazalanish qoidalariga o'rgatish. Fuqaro muhofazasiga o'qitishni tashkil etish va o'tkazish tadbirlari.

11-mavzu. Yong'in xavfsizligi asoslari. Yong'in xavfsizligini ta'minlash soxasida davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida" gi Qonunining mazmuni va mohiyati. Yong'in xavfsizligini ta'minlash asoslari. Yonish jarayoni, uning turlari va xususiyatlari. Yong'in kelib chiqishi sababi xaqida umumiy tushunchalar.

12-mavzu. Modda va materiallarning yonish-portlash xavfi tavsifi. Yonish-portlash xavfi mavjud modda va materiallarning xossalari. Yonuvchan suyuqliklarni saklash va foydalanishda yong'in xavfsizligi talablari. Yuqori bosim ostidagi gaz ballonlarini ishlatishda yong'in xavfsizligi talablari. Modda va materiallarni saklash xamda yong'in xavfi bulgan ishlarni bajarishda yong'in xavfsizligi choralari. Sifatligi to'g'risida sertifikatga ega bo'lmagan, qo'lbola yasalgan, nostandart gaz, elektr uskunalari hamda turli xajmdagi gaz ballonlaridan foydalanmaslik, tabiiy gaz va elektrdan to'g'ri foydalanish tartibi. Yong'in xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslari. Yong'inlarda odamlar va moddiy boyliklarning xavfsizligini ta'minlash. Yong'in xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslari. Muxandis-texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilarni yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ko'llashga o'rgatish. Yong'in vaqtida odamlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilishning tashkil etishni o'ziga xos xususiyatlari. Yong'inida jaroxatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

13-mavzu. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari.

Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalari.

14-mavzu. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish) ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari. Suyak singanda ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam. Uzoq vaqt bosilish sindromida jarohatlanganlarga ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam. Suvga cho'kkan odamga, muzlagan, elektr toki urgan insonlarga tibbiy yordam ko'rsatish.

15-mavzu. Tabiiy va is gazlari, zaharli moddalar bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zaharlanish holatlarini oldini olish va jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jabrlanganlarni transportirovka qilishda yordam ko'rsatish. Tabiiy ofat, avariya va katastrofalarda jabrlanganlarni tibbiy saralash (traj) qoidalari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xavflarning xususiyatlarini va guruhlanishini o'rganish.
2. Baxtsiz hodisani tahlil qilish uchun «sabablar va xavflar daraxti»ni qurishni o'rganish.
3. «Inson va ishlab chiqarish» tizimini dekompozitsiyalash. Maqbul tavakkal nazariyasining mohiyatini o'rganish
4. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati o'rganish.
5. Operatorning ish joyini tashkil qilishni o'rganish.
6. Favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda xabar berish.
7. Tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda holatlarda aholi harakati.
8. Shaxsiy himoya vositalari. Shaxsiy himoya vositalari haqida umumiy tushuncha.
9. Fuqarolarni himoya inshootlarida muhofaza qilish. Axolini evakuatsiya qilish.
10. Favqulodda holatlar sodir bo'lganda radiatsiyaviy sharoitni aniqlash va baholash usullari. Favqulodda holatlar sodir bo'lganda kimyoviy sharoitni aniqlash va baholash usullari.
11. Yong'in haqida xabar berish va o'chirish vositalari. Bino va inshootlarda evakuatsiyani tashkil qilish jarayoni va jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
12. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari. Suyak singanda ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish.
13. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi.
14. Tabiiy va is gazlari bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zaharlanish holatlarini oldini olish va jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
15. Jabrlanganlarni transportirovka qilishda yordam ko'rsatish. Tabiiy ofat, avariya va

katastrofalarda jabrlanganlarni tibbiy saralash (trij) qoidalarini.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik bir professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda mutanosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. HFX muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.
2. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
3. Ish o'rini tashkillashtirishning talablari. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
4. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
5. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi. Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
6. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati. Odam anatomiyasining (antropometrik parametrlarining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
7. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlili.
8. Shovqin va titrashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi.
9. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen xavflar. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
10. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
11. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
12. "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
13. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimini o'rganish. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
14. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
15. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati. Bino va inshootlarning portlashga qarshi ximiyosi.
16. Shamollatish va havoni kondensatsiyalash tizimi. Yong'inga qarshi to'siqlarning vazifasi va turlari.
17. Ishlab chiqarishda yondirish manbalari. Yong'in tarqalishi sabablari va sharoitlari. Yonuvchan modda va materiallarni transportirovka qilish jixozlarining yong'in xavfi tasnifi.
18. Texnik gazlar, ularning yong'in xavfi xususiyatlari. Bino va inshootlarning yashindan ximoyalash.
19. Yong'in texnik tekshiruvlari va profilaktik ko'riklarini o'tkazish tartibi va bosqichlari. Portlab yonish va yong'in xavfi bo'yicha xona, bino va tashqi qurilmalarning toifalari.
20. Elektr qurilmalarining yong'in xavfsizligi. Ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari va ularning vazifalari.
21. Yong'in o'chirish kuch va vositalarini boshqarish.
22. Respublikada xalokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari.

23. Jabrlanganlarga birlamch tibbiy yordam ko'rsatish.

24. Tomirdan qon ketganda birinchi yordam ko'rsatish.

25. Suyak singanda birinchi yordam ko'rsatish.

26. Yurak o'pka reanimatsiyasini otkazish.

27. Ovqatdan zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish.

28. Avariya va katastrofalarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish.

29. Tabiiy va is gazlari bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zaharlanish holatlarini oldini olish va jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

30. Jabrlanganlarni transportirovka qilish yordam ko'rsatish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimot qilishadi.

3

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib «Hayot faoliyati xavfsizligi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning asosiy muammolari to'g'risida:

- o'z bo'lajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida;

- xavf-xatarlarni identifikatsiyalash;

- xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari, uslublari va vositalarini tahlil qilish;

- faoliyatning xavfsiz sharoitlarini loyihalash;

- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi.

- hayot-faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining asosiy talablarini;

- faoliyat xavfsizligi sharoitlarini yaratishda mansabdor shaxslarning vazifalari va javobgarliklarini;

- ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasb kasalliklarini tahlil qilish uslublarini;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining yuzaga kelishining oldini olish usullarini;

- ishlab chiqarishda mikroqilimning gigienik me'yorlarini tashkil etishni bilishi kerak.

- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etishni;

-elektr qurilmalari, uskunalari, mashina va mexanizmlarni ishlatganda, texnik xizmat ko'rsatganda va ta'mirlashda ko'riladigan asosiy texnika xavfsizligi talablari;

- zararsiz ish sharoitini ta'minlovchi umumiy va shaxsiy himoya qilish vositalari;

-yong'in chiqish sabablari, ular oldini olish va o'chirishning tashkiliy va texnik vositalari;

- favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish uslublari;

- favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish tamoyillari, uslublari va vositalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

- favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish vositalarini ishlatish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

-turli holatlarda jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsata olish;

- texnika, elektr va yong'in xavfsizligi talab va me'yorlarini tez va qat'iylik bilan bajarish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

	Qo'yilgan vazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminarlarda faol ishtiroki hamda o'qituvchi kuzatuvida mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshiriladi.
4	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar: <p>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar</p>
5	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Baxriddinova N.M., Sulaymonova S.S. "Hayot faoliyati xavfsizligi" -T. o'quv qo'llanma 2019. 2. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarsulov "Hayot faoliyati xavfsizligi" O'quv qo'llanma – Samarqand – 2019. 3. R.Xaydarov, X.M.Yunusova "Hayot faoliyati xavfsizligi" O'quv va metodik qo'llanma – 2019. 4. A.H.Qo'ldashev, E.E.Sabirov, S.S.Sultonov. Yong'in o'chirish taktikasi. Darslik. –T. Cho'lpon nomidagi NMIU. 2017. 5. O. R. Yuldashev, Sh. G. Djabborova, O. T. Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T. Darslik "Toshkent - iqtisodiyot", 2014. 6. M.X. Tojiyev, I. Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012. 7. Nigmatov I., Tojiyev M. X. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. 2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. 3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni. 5. O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabrdagi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi №O'RQ-226-son qonuni. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 23 maydagi "Ichki ishlar

	<p>organlari yong'in xavfsizligi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2992-son Qarori.</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2008. 8. "Mehnat Kodeksi". O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2005, 37-38 -son. 9. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 2002 y., 1-son. 10. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 1999, 9-son. 11. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 2000, 5-6-son. 12. "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2009. 13. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2004, 25-son. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.bilim.uz 2. www.zivo.edu.uz 3. www.zivo.net.uz 4. www.mchs.gov.uz 5. www.LexUz 6. www.ohranatruda.ru 7. http://ipb.mos.ru/ttb
7.	Mazkur o'quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Ekologiya va tabiatdan foydalanish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan tuzilgan o'quv dastur (https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_E/) asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>S.Y.Babajanova - UrDU, "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida dotsenti</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.K. Babadjanova- UrDU, "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida dotsenti Z.R.Tojiyev – UrDU, "Biologiya" kafedrasida dotsenti</p>